

577.4 y38.2
E-43

EKOLOGIYA
fanidan
AMALIY MASHG'ULOTLAR



81.08.2.
572.
E. 43
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**EKOLOGIYA
fanidan
AMALIY MASHG'ULOT**

**noekologik yo'nalishdagi bakalavrlar uchun
O'QUV-METODIK QO'LLANMA**



**Toshkent
"MUMTOZ SO'Z"
2012**

УДК: 521.821.133
ББК 63.3(5Ў)

Tuzuvchilar: **Nigmatov Asqar** – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Ekologiya kafedrası mudiri, professor;
Turabaev Akmal – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Ekologiya kafedrası katta o‘qituvchisi, b.f.n.

Taqrizchilar: **Rahimov M.SH.** – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Biologiya-tuproq-shunoslik fakulteti Zoologiya va ihtiologiya kafedrası dotsenti, b.f.n.;
Atadjanov I. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi Ekologik harakat deputati, g.f.n., dotsent

63.3(5Ў)
A15

Nigmatov, Asqar.

Ekologiya fanidan amaliy mashg‘ulot: noekologik yo‘nalishdagi bakalavrlar uchun o‘quv-metodik qo‘llanma / A.Nigmatov, A.Turabaev. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy un-ti. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2012. – 56 b.

УДК: 521.821.133
ББК 63.3(5Ў)

Mazkur o‘quv-metodik qo‘llanma Φ -1-121 granti asosida bajarildi.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘quv-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etildi
(2012 yil 10 martdagi 7-sonli bayonnoma).

ISBN 978-9943-398-78-8

© Nigmatov A., Turabaev A., 2012
© “MUMTOZ SO‘Z”, 2012

AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Tavsiya etilayotgan amaliy mashg'ulotlar 32 auditoriya soatiga mo'ljallangan bo'lib, unda noekologik yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalarning matematika va tabiiy fanlar 2-blokida turgan "Ekologiya" fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliy tarzda mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash, hodisa, jarayon, holat va voqelikni ekologik jihatdan tahlil qilish hamda tegishli ijobiy qarorlarni mustaqil ravishda qabul qila olish ko'nikmasini ega qilish. O'quv qo'llanmada amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan tarzda o'tkazish metodlaridan keng foydalanilgan.

AMALIY MASHG'ULOTLAR REJASI

T/r	Mavzu	Soat	Betlar
1.	Ekologiyaga oid tushunchalarni tekshirish va mustahkamlash	2	4-11
2.	Kishi hayotining davomli variantlarini modellashtirish	4	12-16
3.	Inson farovonligi va atrof-muhit	4	17-19
4.	Ekologik barqaror hududlar va shaharlar muammosi	4	20-23
5.	"Ekologik auksion"dagi ekologik texnologiyalar	4	24-27
6.	Biologik hilma-hillik bizga nima uchun kerak?	4	28-31
7.	"Kimning chiqindisi foydaliroq" o'yini	6	32-36
8.	Ekologik havfsizlikni ta'minlash – zamon talabi	4	37-40
Ekologiyaga oid asosiy atama va iboralar lug'ati			41-49
Tavsiya etiladigan adabiyotlar			50-54

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-amaliy mashg'ulot . EKOLOGIYAGA OID TUSHUNCHALARNI TEKSHIRISH VA MUSTAHKAMLASH

Mashg'ulot metodi. «Chumoli uyasi» mavzusidagi ekologik marafon.

Ma'lumotlarni tekshirish va tahlil qilish (dinamik mashg'ulot). Ish jarayonida talabalar auditoriyada «chumoli uyasi»ga o'xshagan holatga tushadilar, boshqacha qilib aytganda, ular passiv ishtirokchilar bo'lmaydilar (mashg'ulot to'g'ri tashkil qilinsa, mazkur metod auditoriyani to'la jalb etadi).

Mashg'ulotning maqsadi. Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida uchraydigan asosiy atama va tushunchalarni tizimlashtirish va ularni talabalarda mustahkamlash. Buning uchun talabalarining xotiralarini chiniqtirish, o'z-o'zini tekshirish, katta hajmdagi ma'lumotlardan so'ng ularning ish faoliyatini o'zgartirish zarur. Unda atamalarni to'g'ri ishlatish va ko'nikmalarni hajm qilish talab etiladi.

Mualliflar mazkur metodni qo'llashda pedagogning bilim va mahoratidan kelib chiqqan holda unga to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritishlari mumkinligini ham aytib o'tadilar.

Mashg'ulot tavsifi:

1-bosqich. Mashg'ulotni boshlashdan avval savollar va savollarga javob yozilgan vatman devorga osib qo'yiladi. Ishtirokchilar 3-5 daqiqa davomida savollarni eslab, ularga javob beradilar. Keyin, barcha tinglovchilar guruhi 14 ta (uchtadan beshtagacha talabadan iborat bo'lgan kichik) guruhchalarga bo'linadilar. Kichik guruhlar soni savollar va ishtirokchilar soniga bog'liq bo'ladi. Guruhchadan bir talaba savollarning kerakli mavzusidan bittadan qur'a tortishi tavsiya etiladi.

2-bosqich. har bir guruhcha mazkur savolga javob topmogi lozim. Buning uchun ma'lumotlarni yig'uvchi varaqalarni tayyorlashlari zarur (varaqalarning namunasi quyida berilgan). Undan tashqari, mashg'ulot ishtirokchilari o'yin davomida faqat aniq sa-

volga javob bermasdan, balki boshqa guruhchadagi ishtirokchilar-ning savollariga ham javob berishlari kerak. Varaqalarni tayyorlash uchun 5 daqiqa ajratiladi.

3-bosqich. 10 daqiqagacha talabalar mumkin qadar ko'proq berilgan savollarga javob berishlari lozim bo'ladi. Javob bergan shaxs-ning ismini savol beruvchi kartochkaga yoki varaqqa yozib oladi.

4-bosqich. Mashg'ulotning dinamik yoki harakatdagi qismi tugagandan keyin, olingan javoblar tahlil qilinadi. Eng yaxshi bilimdonlar tanlanadi va qoliblar ikkita nominasiyalar bo'yicha – eng ko'p sondagi savollarga javob berganlar va eng ko'p javoblarni olganlar aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, ismi hammadan ko'p yozilgan shaxslar aniqlanadi. Mashg'ulotni jamlash, qoliblarni rag'batlantirish, fikr almashish va xulosalash ishlari olib boriladi.

T/r	Savollar	Javoblar
1.	Ekotizim nima?	Bu o'zaro bog'liqlik va ta'sir natijasida kelib chiqqan yagona funksional birlikdagi tirik mavjudotlar(organizmlar)ning yashash muhiti (areali, makoni - nishasi). Ekotizimlar hozirgi kunda nanoekotizim (masalan, bir tomchi suvdagi organizmlar yashash muhiti), mikroekotizim (masalan, chiriyotgan daraxtdagi mikroorganizmlar yashash muhiti), mezoekotizim (o'rmondagi organizmlar yashash muhiti), makroekotizim (okeandagi organizmlar yashash muhiti) kabi tasniflaniladi yoki ekologiya fanining tadqiqot obyektlariga bo'linadi
2.	Tabiat muhofazasi nima?	2.1. Organizmlar, jumladan insonlarning yashash muhiti bo'lgan ekotizimlarni, ya'ni ulardagi tabiat majmulari va unsur (komponentlar)ini saqlashga yo'naltirilgan choratadbirlar majmui. 2.2. hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlarini ko'zlab Er planetasi va uni o'rab turgan yaqin fazodagi tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan global, regional, milliy va mahalliy miqyosdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy-madaniy, huquqiy, ekologik tadbirlar tizimi

3.	Biologik xilma-xillik nima?	Organizmlarning rangini emas, balki turining (jumladan, hayvonot va o'simlik dunyosining) xilma-xilligidir
4.	Barqaror rivojlanishchi?	4.1. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni aks ettiruvchi hamda hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondiruvchi taraqqiyot yo'nalishi. 4.2. Ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan «kelajak loyihasi», ya'ni Yer kurrasidagi barcha insonlarning birgalikdagi ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik muammolarni yechimini topishdagi harakatlar majmuasi
5.	O'zbekistonda qanday qo'riqxonalar mavjud?	Zomin tog'-archa, Chotqol tog'-o'rmon, Surxon, qizilum to'qay-sahro, Badayto'qay, Nurota tog'-yong'oq, Zarafshon to'qay, Hisor tog'-archa, Kitob geologik
6.	Produsentlar nima?	Noorganik moddalardan birlamchi organik moddalar hajm qiluvchi o'simlik turlari, ya'ni biomassalarni ishlab chiqaruvchi organizmlar
7.	Redusentlar nima?	"Ozuqa zanjiri"dagi "Ekologik piramida"ning ohirgi bo'g'inidagi organik moddalarni parchalab mineral moddalarga aylantiruvchi organizmlar, Ular
8.	Konsumentlar nima?	Yashil o'simliklar va ular hajm qilgan moddalarni iste'mol qiluvchi o'txo'r hayvonlar hamda zamburug'lar va mikroorganizmlar
9.	Tabiatda modda va energiya aylanishini qanday tushunasiz?	9.1. Yer kurrasining barcha qobig'i (sferasi)-da, jumladan, biosferada kechadigan jarayonlar tufayli sodir bo'ladigan modda va energiya turli darajadagi doimiy aylanishi. 9.2. Ekotizimlar doirasida doimiy ravishda kechayotgan jarayon va hodisalar natijasida yuzaga keladigan modda va energiya kichik va katta almashtirishuvi.
10.	Biosenoz nima?	Muayyan ekotizimdagi organizmlar jamoasi
11.	Yashash makoni - "nisha" nima?	Organizmlar hayot kechirayotgan va unga moslashib olgan tabiiy yoki antropogen o'zgargan atrof-muhit
12.	Ekologiya nima?	Organizmlar o'zaro va ularning o'rab turuvchi yashash muhiti o'rtasidagi aloqadorlik qonun va qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi fan

		sohasi, unga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalishi va ushbu aloqadorlikni optimalashtirishga qaratilgan amaliyot tarmog'i.
13.	Ekologik barqarorlik deganda nimani tushunmoq kerak?	Turli ta'sir etuvchi omillarga nisbatan ekologizmlarni tuzilishi va funksional xususiyatlarini saqlab qolish darajasi.
14.	"Ekologik bumerang" nima?	Ekologik talablar, ya'ni tabiiy resurslardan oqliona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashni inkor etish natijasida yuzaga kelgan holat.

Ekologik marafonga tegishli varaqalar:

1. Ekotizim nima?		Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:		
1.....		
2.....		
3.....		
4.....		
5.....		
6.....		
7.....		
8.....		

2. Tabiat muhofazasi nima?		Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:		
1.....		
2.....		
3.....		
4.....		
5.....		
6.....		
7.....		
8.....		

3. Biologik xilma-xillik nima?		Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:		
1.....		
2.....		
3.....		
4.....		

5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

4. Barqaror rivojlanish-chi?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

5. O'zbekistonda qanday qo'riqxonalar mavjud?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

6. Produsentlar nima?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

7. Redusentlar nima?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	

3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

8. Konsumentlar nima?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

9. Tabiatda modda va energiya aylanishini qanday tushunasiz?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

10. Bisenoz nima?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

11. Yashash makoni – “nisha” nima?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

12. Ekologiya nima?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

13. Ekologik barqarorlik nima kerak?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

14. «Ekologik bumerang» nima?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	

7.....	
8.....	

15. Ekologik inqiroz nimani bildiradi?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

16. Ekologik talofat nima?	Javob beruvchining ismi
Ta'riflar:	
1.....	
2.....	
3.....	
4.....	
5.....	
6.....	
7.....	
8.....	

2-amaliy mashg'ulot. KISHI HAYOTINING DAVOMLI VARIANTLARINI MODELLASHTIRISH


Mashg'ulot metodi. Modellashirilgan mashg'ulot: «Oroldagi hayot».

Mashg'ulotning maqsadi. Kishi hayotining uzoq muddatli variantlarini rejalashtirishni cheklangan tabiiy sharoitdagi modelini yaratish.

Mashg'ulot uchun kerakli materiallar: A-1 formatdagi toza qog'oz va rangli markerlar.

Mashg'ulot tavsifi:

1-bosqich. Talabalardan Birlashgan Millatlar tashkilotining (BMT) 5-6 iyun 1972 yil Yevropaning Shvesiya mamlakati poytaxti Stokgolm shahrida bo'lib o'tgan «Atrof-muhit» hamda Janubiy Amerika qit'asining Braziliya mamlakati Rio-de-Janeyro shahrida 1992 yil «Atrof-muhit va rivojlanish» mavzularidagi konferensiyalarida qabul qilingan atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish konsepsiyalarining quyidagi asosiy yo'nalishlarini sanab chiqishlarini so'rang:



Mazkur modellashirilgan mashg'ulot atrof-muhit muhofazasi va mamlakatlarni barqaror rivojlanishiga doir yuqorida keltirilgan har bir yo'nalishlarni puxta o'ylab ko'rish va ularni talabalar o'rtasida muhokama qilish uchun imkon yaratadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish g'oyasining amalga oshirish muhimligini tushungan holda kelajakni hayolan tassavvur qilish va o'z faoliyatimizni shunga qarab moslashtirish masalasini qo'yadi.

2-bosqich. Guruh talabalari 3 ta komandaga bo'linadilar.

3-bosqich. Pedagog, ya'ni amaliy mashg'ulotni olib boruvchi vaziyat bilan talabalarni tanishtiradi. Masalan, "Siz hammangiz bir mamlakatning fuqarosi, lekin ekologik fojiya (o'rmonlarning yo'qolishi, yyerlarning cho'llanishi, ichimlik suv manbalarining ifloslanishi va tabiiy resurslarning yo'q bo'lishi) oqibatida davlat inqirozga yuz tutdi. Insonlarni yashashi uchun zarur bo'lgan atrof tabiiy muhit endilikda mamlakatingizda kundan kunga ko'payib borayotgan aholining ekologik xavfsiz muhitda istiqomat qilishlarini ta'minlab ololmayapti. Vaziyat mamlakat aholisining bir qismini atrof tabiiy muhit holati ekologik xavfsiz darajada saqlanib qolgan ochiq dengiz qo'ynidagi kimsasiz orolga ko'chib borishga majbur etdi".

4-bosqich. A-4 varaqli qog'ozga har bir komanda a'zosi kimsasiz orolga ko'chib kelgan aholini uzoq muddatda qolib ketishlarini hisobga olgan holdagi hayoti va turmush tarzini ifodalashi lozim. Cheklangan tabiiy resurslarni insonlarni uzoq muddat hayot kechirishlari uchun yetadigan tarzidagi oqilona foydalanish yo'llarini hisoblab chiqarishlari va aholi sonini rejalashtirish muammosini hal qilishlari zarur. Undan tashqari, talabalar amaliy mashg'ulotni olib boruvchining qo'ygan savollariga ham javob berishlari kerak. Qog'ozda talabalar tasavvuridagi orolning rasmini chizib, unga nom berishlari (masalan, "Viktoriya") hamda shartli belgilar (ixtiyoriy ravishda) yordamida oroldagi barcha hayotiy zarur xo'jalik va kartografik obyektlarni ko'rsatishlari lozim.

5-bosqich. Komandada bajarilgan ishlar uning a'zolari bilan muhokama qilinadi, fikrlar umumlashtiriladi va ko'chib borgan aholining «oroldagi hayoti» haqidagi axborotni barchaga yetkazish uchun ikki talabadan iborat prezentatsiya qiluvchi komanda vakili tanlanadi.

6-bosqich. Komandalar ish natijalari haqida prezentasiya qilishadi va berilgan savollarga javob beradilar. Prezentasiya uchun komandalarga 3-5 daqiqa vaqt ajratiladi.

7-bosqich. Prezentasiyasidan so'ng olib boruvchi pedagog «oroldagi eng barqaror manzilgoh»ni talabalar yordamida tahlil qiladi va uni aniqlaydi. Bu amaliy mashg'ulotning muhim sharti hisoblanadi. So'ngra, talabalar bilan birgalikda, insonlarni atrof-muhit holatiga nechog'lik ta'sir etishlari va barqaror manzilgohlarni yaratishda ularning roli haqida xulosalar qilinadi.

Oroldagi vaziyatga tavsif:

Yuzaga kelgan inqirozli ekologik vaziyat tufayli Sizlar odam yashamaydigan orolga tushib qoldingiz. Bu yer boy hayvonot va o'simlik dunyosiga ega. Yovvoyi mushuk, kaltakesak, suvarak, qush va boshqa jonivorlar ko'p ekan. Orolning bir qismi chorvachilik uchun yaroqli bo'lgan o'tloq bilan qoplangan. Uning janubida esa sahro va qoyali tog'lar joylashgan. Chuchuk suv manbayi ikkita kichik, kam suvli soylar. Orolda zilzilalar, zaharli o'simliklar va hayvonlar bor, qishi sovuq, yozi issiq, qo'shni orollarda yovuz dushmanlar kirishi kabi xavfli holatlar ham bor. Shuning uchun ham orolda uyushgan holda insonlarni yashab ketish imkoniyati bor. Lekin, orolda yakka odamning yashashi juda mushkuldir.

Sizlarda ilgari yashagan, ya'ni kimsasiz orolga tushmagan "katta yer"dagi qulay hayot tarziga qaytish imkoniyati yo'q. Asosiy vazifa – o'zlaring uchun orolda qulay sharoit yaratish. Sizlarning vaziyatingiz juda jiddiy ekanligini tushuning. Chunki oroldagi bunday noqulay vaziyatga tushgan kishilar boshida yovvoyilashgan va alamzada, doim yoqalashishga tayyor va g'azablangan bo'ladilar. Bunday vaziyatda o'ta jiddiy va bilimli, qarorlarni o'ylab to'g'ri chiqarishlaring kerak bo'ladi. Yengiltaklikka o'rin yo'q – sizlar nimanidir yeb, qayerdadir yashashlaring, uchun esa orolni o'zlashtirishingiz va xo'jalikni yuritishingiz zarur.

Bir varoq qog'ozda kimsasiz orolning kartasini chizib, unga shartli belgilarni tushiring!

Ijodiy jarayon davomida har bir komanda quyidagi savollarga javob berishi lozim:

1. O'zlaringizga turar joyni Sizlar nimalardan qurasiz?
 - a) yog'ochdan;
 - b) toshdan.
2. Sizlarning manzilgohingiz qayerda joylashadi?
 - a) o'rmonda (daraxtlarni kesib joylashtiriladi);
 - b) sahroda (u o'zlashtiriladi).
3. Sizlarga go'sht maxsuloti yetishmaganda nima qilasiz?
 - a) ov bilan shug'ullanamiz;
 - b) yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirib ko'paytiramiz;
 - s) vegetarianlarcha hayot kechiramiz, ya'ni go'sht maxsulotlarini iste'mol qilmaymiz.
4. Siz dehqonchilik bilan shug'ullanasizmi?
 - a) Ha, o'rmonlarni kesib va yaylovlarni qaydaymiz;
 - b) Ha, sahroni o'zlashtiramiz.
5. Siz chorvachilik bilan shug'ullanasizmi?
 - a) Ha, echki va quyonlarni ko'paytiramiz;
 - b) Ha, yovvoyi hayvonlarni xonakilashtiramiz;
 - s) Ha, sigir va otlarni ko'paytiramiz.
6. Siz o'z hayotingizni sifat jihatdan o'zgartirmoqchisizmi?
 - a) zavod va fabrikalarni quramiz;
 - b) hech narsa qilmaymiz;
 - s) o'zingiz tanlagan variant?
7. Sizning manzilgohingizda suvsizlik tufayli dizenteriya kasali paydo bo'ldi. Bunga sabab toza va xavfsiz ichimlik suvining yetishmasligi. Siz:
 - a) dizenteriya kasali bilan sanitariya yordamida kurashamiz;
 - b) hech narsa qilmaymiz;
 - s) o'zingiz tanlagan variant?

O'yin natijalarini jamlang va javoblarni tahlil qiling. Qiyinchiliklarni yengish uchun imkoniyati eng ko'p bo'lgan va tabiiy resurslardan eng unumli foydalangan komandani aniqlang. Javoblar variantlari – 1b; 2b; 3b; 4b; 5b; 6a; 7a deb belgilansa, unda komandalarning xulosalari ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish konsepsiyasiga mos to'g'ri keladi, chunki ushbu faoliyat atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning eng maqbul metodlaridandir.

Mazkur mashg'ulotning yakunlovchi xulosasi tariqasida shuni aytish mumkin. Ekologik inqiroz va u bilan bog'liq bo'lgan muammolar – cho'llanish, yerlar degradasiyasi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, ba'zi joylarda suvsizlikni ko'payishi yoki toshqinlarni tez-tez bo'lib turishi, muzliklarni kamayib borishi, yog'insochinlarni yil davomida taqsimlanishini o'zgarishi, erozion va texnogen buzilish, sho'rlanish va botqoqlanishning ortishi, atrof-muhitni ifloslanishi kabi hodisa va jarayonlar tufayli sodir bo'lmoqda. Barcha ekologik muammolarni yakka tartibda, biron bir mamlakat dorasida hal etib bo'lmaydi. Ularning yechimini topish uchun Yer sayyorasidagi barcha insonlar hamjihatlik bilan, astoydil, qo'yilgan aniq maqsad sari harakat qilishlari kerak. har birimizning bunga daxldor ekanligimizni tushunish o'ta muhimdir. havo, tuproq, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi davlatlar va xalqlarning milliy boyligidir. Auditoriyada ekologik xavfsiz muhitda barqaror rivojlanish uchun barcha ijtimoiy munosabatlarni bir paytning o'zida kompleks ravishda hal etish mumkin ekan, degan fikrga talabalarni olib kelish lozim.

3-amaliy mashg'ulot. INSON FAROVONLIGI VA ATROF-MUHIT

Mashg'ulot metodi. Modellashtirish (obrazli o'yinlar va baxs).

Mashg'ulot maqsadi. «Ekologik inqirozli mamlakatlarga texnologik yordamni ko'rsatish» orqali global ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

Qo'shimcha ma'lumot. Ekologik xavfsizlik Yer planetasining barqarorlik mezonlaridan biri hisoblanadi. Chunki atrof tabiiy muhit barqarorligi va aholining salomatlik darajasi, albatta, aholining ekologik ongi va madaniyatiga to'g'ri proporsionaldir. Kishilar tabiat boyliklari va uning holatiga doimo ehtiyoj sezadi. Bularning hammasi, bir tarafdin, insonlarni yashash muhitiga, ikkinchi tomondan esa tabiiy resurslarning kamayib borishiga olib kelishi mumkin. Ekologiyada mana bu ikki holat o'rtasida muvozanatni topish, tabiatga nisbatan antropogen bosim darajasini me'yorlash, inson salomatligi muammolarini yechishdan boshlashni talab etiladi.


«Nochorlikda kun kechirayotgan davlatlar»ning ekologik xavfliligi nimada? Nima uchun ular hamjamiyatga va atrof-muhitga muayyan darajada taqdid soladilar? Nima uchun qashshoqlikni oldini olish Birlashgan Millatlar tashkilotining «Atrof-muhit va rivojlanish» bo'yicha o'tkazgan Konferensiyasida (Rio-92) va «Barqaror rivojlanish» bo'yicha bo'lib o'tgan Sammitda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Mazkur mashg'ulotda biz bu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Komandalarga vazifa:

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yuzaga kelayotgan muammolarni tasvirlash va izohlashga harakat qiling:

Mashg'ulot uchun 10 daqiqa, prezentasiya uchun esa har bir komandaga 5 daqiqadan vaqt ajratiladi, qo'yilgan savollar soni va muammo ko'lamiga qarab komandalar soni 6 yoki undan ko'proq talaba bo'lishi mumkin.

Mashg'ulotning keyingi bosqichida «Nochorlikda yashayotgan davlatlar» o'yinini o'tkazish tavsiya etiladi.



Mazkur mashg'ulot uning ishtirokchilarini ma'naviy-ma'rifiy tanlov va murosasiz vaziyatga ro'para qiladi. Ishtirokchilar esa ushbu holatdan chiqib ketishlari darkor.

Mashg'ulotni o'tkazish mobaynida ishtirokchilar bir birlarining fikrlarini tinglashlari, savollar berishlari, ochiq muhokamalarni qo'llashlari va komandalar o'rtasidagi nizolarning oldini olishga erishmoqlari darkor.

Ishni tashkil etish

Ishtirokchilarga quyidagi muammoli vaziyatning tavsifi o'qib eshittiriladi:

A. DAVLAT – kichik, aholisi juda ko'p, B davlat bilan hamkor bo'lmagan, o'zining aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosini hal etish bilan band. Yashash sharoiti va aholining salomatligi shu darajada yomonlashib, o'lim darajasi keskin oshib ketdi. O'layotganlarning aksariyati qariyalar va yosh bolalardan iborat edi.

B. DAVLAT – A davlatning bunday vaziyatdalgidan tashvishlangan, rivojlangan va boy davlat. Uning xalqi o'z prezidentidan A davlatiga oziq-ovqat yordamini berishni so'radi. Prezident shuni tushunib yetdiki, agar u A davlatga mazkur yordamni ko'rsatsa, u davlat vaqtinchalik o'z sharoitini yaxshilaydi. Keyinchalik esa, ya'ni hamma berilgan oziq-ovqat tugaganidan so'ng, A davlati avvalgidan ham xavfliroq bo'lgan ocharchilik muammosi bilan to'qnash keladi. Yana Prezidentga shu narsa ayon ediki, agarda u A davlatni oziq-ovqat bilan ta'minlamasa, A davlat aholisining ko'pchiligi qirilib ketadi va uning soni kamayadi. Kam sonli aholi bilan A davlati o'zini ushlab tura olmaydi va aholisi uchun yaxshi turmush tarzini yarata olmaydi.

So'ngra, olib boruvchi mashg'ulot ishtirokchilari o'zlarini B davlatning Prezidentini o'rniga qo'yib, mazkur holatdan chiqib ketish haqidagi fikrlarini aniqlashni so'raydi.

Doskaga E.Hemingueyning: «Axloqiy narsalar – ulardan so'ng sizlar o'zlaringizni yaxshi his etgan narsalardir» degan fikri osib qo'yiladi. Keyin esa savol beriladi: «Agarda Siz B davlatning Prezidenti bo'lganingizda nochorlikda yashayotgan A davlatga oziq-ovqat berish masalasini qanday hal etgan bo'lur edingiz?»

Ishtirokchilarga fikrlash uchun 5-7 daqiqa beriladi, so'ngra, ularning mulohazalariga qarab ular uch guruhga ajratiladi. Masalan:

1. ha, men oziq-ovqatni bergan bo'lur edim.
2. Men bu masalani hal qila olmas edim.
3. Yo'q, men oziq-ovqatni bermagan bo'lur edim.

Guruhlar shakllanganidan keyin ularga o'z fikrlarini asoslashlari uchun imkon beriladi va «nochorlikda yashayotgan A davlat muammolari»ni yechishga harakat qilinadi.

O'yin bo'yicha xulosa: hamma davlatlar aholisining salomatligiga xavf tug'dirayotgan va tegishli xavfning oldini olishning ekologik omillarini baholash va aniqlash dasturlariga ega bo'lishlari lozim. Ular ushbu dasturlarga atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligini saqlashning milliy chora-tadbirlar ko'lamini ko'rsatishlari lozim.

4-amaliy mashg'ulot. EKOLOGIK BARQAROR HUDUDLAR VA SHAHARLAR MUAMMOSI

Mashg'ulot metodi. Aqliy hujum.

Mazkur metod guruhlarda aqliy faoliyatni faollashtirish va iloji boricha qo'yilgan masalalarni har tomonlama yechish orqali muammolarni samarali hal qilishga yo'naltirilgan.

Ta'lim strategiyasining asosiy vazifasi. Cheklangan vaqt davomida imkoniyati boricha ko'proq g'oyalarni yig'moq. "Ekologik barqaror hududlar va shaharlar muammosi" mavzusini o'rganishdan avval, talabalarning boshlang'ich bilim darajalarini baholash mumkin yoki mavzuni o'rganishni tugatgandan so'ng, ya'ni uni o'rganish samaradorligini baholash uchun qo'llash mumkin.

Mashg'ulot maqsadi. Shaharning ekologik vaziyatini o'rganish jarayonida aholining ekologik madaniyatni shakllantirish va unda kechayotgan ekologik jarayonlarga o'z dahldorligini his ettirish.

"Atrof-muhit" atamasi turli ma'noga ega bo'lib, u keng ma'noda bizni o'rab turgan tabiat va uning unsurlarining holati, bizni kundalik hayotimizga ta'sir etayotgan ma'naviy-ma'rifiy sharoit, siyosiy vaziyat, iqtisodiy daraja hamdir. Har qanday organizmlar uchun yashash muhiti yoki "nisha"si mavjud. Buni fan tilida ekotizim deb yuritiladi.

Zamonaviy shahar – bu iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy, ma'rifiy, madaniy, siyosiy markazlardan biri bo'lgan kishilar yashash muhitining katta manzilgohi (4.1-jadval). Shunday qilib, aytish mumkinki, shahar bu o'ziga xos antropogen kuchli o'zgargan ekotizimdir. Shaharni mustaqil ekotizim sifatida ajratib turadigan belgi – shahar tabiiy, ijtimoiy, siyosiy va resurslarni (yer, ishchi kuchi, kapital, xomashyo) o'zlashtiruvchi maskandir. Shahar atrof-muhitni asosiy ifloslantiruvchisidir. Shahar aholisining tez sur'atlarda o'sib borayotgani Sayyoramizdagi cheklangan resurslarning kamayib borishidagi katta omil sifatida chiqishi, mazkur masalalarni ko'rib chiqish naqadar dolzarb va o'rinli ekanligini ko'rsatib turibdi. Shahar bu:

- kishilarning yirik yashash manzilgohi;
- ma'muriy, savdo, ma'rifiy, madaniy va sanoat markazi;

► o'ziga xos kuchli o'zgargan ekotizim.

Mashg'ulot tavsifi:

► Guruh talabalari uch komandaga bo'linadilar.

► Har bir komandaga yuqorida sanab o'tilgan mavzulardan birini aqliy hujum uchun tavsiya etiladi.

► Aqliy hujum bir necha bosqichlarda o'tkaziladi.

1-bosqich: Talabalar imkoniyati boricha ko'proq qoyalarni taklif etib, e'tiborlarini savollar muhokamasiga kiritmoqlari kerak. Komandalar ish jarayonlarida hamma aytib o'tilgan g'oyalarni yozib olishlari muhimdir. Muhokama qilinayotgan mavzuning nomi vatman varaqining tepa qismiga yozib qo'yiladi. Keyin, varaq teng ikkiga bo'linadi. Mazkur bosqichda komanda faqat berilgan savollar bo'yicha muammolarni aniqlash bilan band bo'ladi va varaqning faqat chap qismini yozuv bilan to'ldiradi. Komandalarga muammoni tarkibiy qismlarga bo'lib chiqish tavsiya etiladi. Yozuvlar tezis ko'rinishida bo'lishi maqsadga muvofiq.

2-bosqich. Murabbiy mashg'ulotni olib borish davomida komandalar faoliyatini yo'naltirib, nazorat qilib boradi. So'ngra, varaqlar yiqiladi va doskaga osiladi. Ma'lum bir mavzu bo'yicha komandalar ishlarining muhokamasi va tahlili bo'ladi. Har bir komandadan bir vakil chiqib komanda ish faoliyatini hammaga o'qib beradi va uni tahlil qilib beradi.

3-bosqich. Ishlash uchun yangi varaqlar murabbiy tomonidan komandalarga tarqatiladi. Bunda oldingi mavzu komandalar uchun qaytarilmasligi lozim. Bu yo'l bilan mavzuni boyitish va unga turlicha yondashish imkoniyatini beradi, ishtirokchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va shu kabi pedagogik masalalarni hal qilish ishtiyoqini oshiradi. Bu bosqichda ishtirokchilar varaqaning o'ng tomonini to'ldiradilar. Chap ustunda hamma muammolarni yechish uchun taklif va mulohazalar tartibi bilan yoziladi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin komandalar ishlari yiqiladi va doskaga osib qo'yiladi. Murabbiy komandalar uchun aniq ko'rsatmalarni berishi va ularning ishlash vaqtini 10-15 daqiqagacha cheklashi muhim.

Shahar - insonlarning yirik yashash manzilgohi sifatida

Shahar - qishloqqa nisbatan yahshiroq hayot istiqboli

1990 yillargacha shahar aholining uchdan bir qismi yashagan bo'lsa, 2020 yilga borib ularda aholining yarmidan ko'pi istiqomat qilayotganligi

Shahar aholisi suv, ozuqa va sanoat mahsulotlari, elektroenergiya kabi resurslarning asosiy iste'mol qiluvchisi

Shahar - maishiy, sanoat va qurilish chiqindilarini ko'p chiqaruvchi ob'ekt

Shahar - o'z chiqindilari ostida qolib ketishi mumkinligi

Shaharlar kelajakda suv tangisligini sezayotgan joy

Shahar - epidemiya va yuqumli kasalliklarning tarqalib ketishining real hayfi bor menzilgoh

Shahar - aksariyat hollarda iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sir etayotgan joy

Shahar - transportdan a'ziyat kechadigan ob'ekt

Shahar - ekstremal iqlim va tabiiy ofatlardan etarli darajada himoyalalmagan manzil ekanligi

Shahar iqtisodiy va ijtimoiy muammolarmaskani

4-bosqich. Komandalar ishlashlari tugallangandan so'ng yozuvlar bilan to'ldirilgan varaqalar yig'iladi va doskaga osib qo'yiladi. Har bir komanda vakili o'z ishlarini o'qib, tahlil qiladi. Hamma to'ldirishlar va mulohazalar hisobga olinadi yoki belgilab boriladi.

5-bosqich. Komandalarga yana yangi varaqalar tarqatiladi. Bunda ham boshqacha mavzudagi masalalar o'rta tashlanadi. Shunday qilib, har bir komandaga uchala xildagi mavzu tarqatiladi. Bu bosqichda ham jamlash jarayoni ketadi, g'oyalar umumlashtiriladi, muhokama qilinadi va ular ahamiyatga ko'ra ro'yxatlaniladi. Komandada yagona fikr paydo bo'ladi va uning qarorini prezentasiya qilish uchun vakil tayinlanadi.

Hamma ishtirokchilarning mazkur mashg'ulot xulosasi quyidagicha bo'lmog'i lozim: «Shahar – bu o'ziga xos ekotizim, shuning uchun ham unda sodir bo'ladigan barcha hodisa va jarayonlar o'zaro uzviy bog'langan, ya'ni inson – atrof-muhit – iqtisodiyot zanjirida turadi. Muayyan bir joyda qabul qilingan qaror yoki harakat o'z ta'sirini boshqa bir joyda ko'rsatishi mumkin. Har bir mashg'ulot qatnashchisi shahardagi barcha jarayon va hodisalarga dahldorligi va ekotizim iyerarxiyasida o'zining o'rni anglab olishi muhim.

5-amaliy mashg'ulot. «EKOLOGIK AUKSION»DAGI EKOLOGIK TEXNOLOGIYALAR

Mashg'ulot metodi. Ishbilarmon o'yin – “Ekologik aukcion”.

Mashg'ulotning maqsadi. Ishtirokchilarning tabiiy resurslardan tejamkorlik, oqilona va ehtiyotkorona foydalanish malakalarini shakllantirish.

Yer kurrasida, ayniqsa sanoati rivojlangan davlatlarda, atrof-muhitning doimiy yomonlashib borishining asosiy sabablaridan biri tabiiy resurslardan foydalanish va undan ishlab chiqarishda barqarorlikni ta'minlay olmaslikdadir.

Insoniyatning eng boy tabaqalari doirasidagi yuqori darajadagi ehtiyojlar va noo'rin isrofgarchiliklar kambag'alchilikning ko'payishiga va tabiat degradasiyasiga olib keladi. Hozirgi vaqtda boy kishilarning 20% Sayyoramizdagi 80% resurslarni iste'mol qiladi, qolgan 20% resurslar 80% aholiga to'g'ri keladi.

Sayyoramizdagi atmosfera havosi, suv va biologik xilma-xillik organizmlar hayotini ta'minlash uchun eng muhim elementlardan bo'lib hisoblanadi. Suv kishilar tomonidan eng ko'p ishlatiladi. Suv, ayniqsa, chuchuk suv, Sayyoramiz bo'yicha bir maromda tarqalganligi sababli kishilar va davlatlar suv iste'molida teng bo'lmagan vaziyatda turadilar.

Sayyoramizda ko'payib borayotgan aholi uchun ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarish ma'lum darajada suv ta'minotiga bog'liq. Irrigasion tizimlar doimo ham benuqson ishlaydi, deb bo'lmaydi. Ular yerlarning botqoqlanishiga, sho'rlanishiga olib kelishi mumkin va oxir oqibatda mazkur yerlarning agronomik qiymati pasayadi. xalqaro ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra XXI asr – chuchuk suv taqchilligi asri bo'ladi. Bu faqatgina bitta tabiiy resurslar muammosiga misoldir.

Yuqoridagi ekologik muammolarning aksariyati barqaror rivojlanish modelining yo'qligi hamda aholi o'rtasida tabiiy resurslarni asrash metodlari to'g'risidagi ma'lumot va bilimlarning yetishmasligi natijasidir. Ko'pincha kishilar «ongsiz yirtqich» kabi tabiat ne'matlarining iste'molchisiga aylanib qolmoqdalar (1-jadval).

1-jadval. Ekspertlarning energiya manbalari istiqbollariга oid ma'lumotlari

Energiya manbai	Zahiradagisi*		Resursi**	
	Iste'mol miqdori o'zgarmagan tarzda	Iste'mol miqdori yiliga 4 foiz oshganda	Iste'mol miqdori o'zgarmagan tarzda	Iste'mol miqdori o'zgarmagan tarzda
Ko'mir	330	50	1980	90
Tabiiy gaz	34	20	180	45
Neft	24	13	280	45

* Zahiralar borligi ishonarli darajada tasdiqlangan, ularning miqdori esa nisbatan aniq ko'rsatilgan energiya manbalarini o'z ichiga oladi. Ularni qazib olish zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirilishi mumkin.

** Energiya resurslarining mavjudligi isbotlangan, lekin ularni o'zlashtirish yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni talab etadi. Bularga geologik qidiruv ishlari natijasida topilgan ochilgan yoqlig'i zahiralar ham kiradi.

«Ekologik auktsion» o'yin tavsifi

O'yin o'tkazish uchun kerak bo'ladigan narsalar:

› Turli davlat vakili (5-10 tagacha) uchun «Grinbaks» pul birligi (har kishiga 50 shartli birlik). Bunda qatnashchilarning soniga monand ravishda vakil va pul miqdori belgilanadi.

› Texnologiya misoli yozilgan A-3 formatdagi 9 ta qog'oz varog'i yoki vatman qog'ozi.

› 9 ta komanda uchun markerlar.

O'yinning borishi.

1-bosqich. Guruhdan o'z ixtiyori bilan 5-10 kishi tanlanadi. Ular «Texnologiyalar auktsioni»ga kelgan davlatlar vakillaridir. Mazkur davlatlarda jiddiy ekologik muammolar mavjud. Auktsionda esa ularga ekologik muammolarni yechib beruvchi texnologiyalarni sotib olish tavsiya etiladi.

2-bosqich. qolgan hamma ishtirokchilar 9 ta komandaga bo'linadilar. har bir komandaga yuqorida bayon etilgan ekologik texnologiyalar yozilgan qog'oz beriladi. 15 daqiqada komandalar ush-

bu texnologiyalarning mohiyatini batafsil yozib va tasvirlab berishlari kerak. Mashg'ulotning muvaffaqiyatli kechuvi uchun texnologiyalar tavsifi yuqori saviyada, intellektual boy, keng tassavvurlik va fikrlash imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim. Bir so'z bilan aytganda - ijodiy to'la erkin bo'lishi kerak.

Texnologiyalar namunasi:

<i>Suv havzalari (okean, dengiz, ko'l, suv ombori, soy va daryolar)ni tozalash</i>
Mohiyati:.....
<i>Chuchuk ichimlik suv tanqisligini hal qilish</i>
Mohiyati:.....
<i>Chiqindilarni utillashtirish</i>
Mohiyati:.....
<i>Yadro chiqindilarini xavfsizlantirish</i>
Mohiyati:.....
<i>Sanoat chiqindilari bilan ifloslangan atmosfera havosini tozalash</i>
Mohiyati:.....
<i>Global miqyosdagi iqlimning isish muammosini hal etish</i>
Mohiyati:.....
<i>Ozon tuynuklari muammosini yechish</i>
Mohiyati:.....
<i>Kislotali yomg'irlar muammosini yechish</i>
Mohiyati:.....
<i>Tuproq unumdorligini qayta tiklash muammosini echish</i>
Mohiyati:.....

3-bosqich. Komandalardan bir yoki bir necha vakillar o'zlarining texnologiyalarini qisqa prezentasiya qiladilar. Texnologiyalar quyidagicha olib boriladi:

1. Mazkur texnologiyalar hal qilishi kerak bo'lgan muammo.
2. Texnologiyalarning qisqacha tavsifi.
3. Texnologiyalarning zarurligi va istiqbolligi.
4. Kutilayotgan natijalar.

4-bosqich. Aukcion. Mashg'ulotni olib boruvchi aukcionchi bo'lib qoladi. Aukcionchi oldi-sottini olib boradi va texnologiyalarni sotib olishni tavsiya etadi. Uning boshlang'ich narxi 10 grinbaksga teng bo'lishi mumkin. Odatda, savdo-sotiq davomida vakillar ular uchun eng muhim bo'lgan texnologiyalarni sotib olishga harakat qiladilar. Texnologiyalar esa unga eng ko'p pul qo'yganlarga sotiladi va ular hamma uchun yetmay turadi (aukcionning shartiga binoan bir texnologiyani faqatgina bir marta sotish mumkin).

5-bosqich. Aukcion natijalarini jamlash, komandalar tomonidan sotib olingan texnologiyalarni va olingan daromadlarni hisoblash.

Xulosa. Davlatlarning o'zaro hamkorligi qanchalik zarur ekanligini uqtirish lozim. Agar turli davlat vakillari kelishib, hamma texnologiyalarni sotib olishgan va agar ular bir birining manfaatlarini hisobga olishgan bo'lsa, unda o'zaro hamkorlikdan hamma manfaatdor bo'ladi. Mashg'ulotning asosiy mazmuni – ekologik muammolarni birgalikda hal qilish zarurligida.

6-amaliy mashg'ulot. BIOLOGIK XILMA-XILLIK BIZGA NIMA UCHUN KERAK?

Mashg'ulot metodi. Munozaraga chaqirish bosqichi – real vaziyatlarni o'ylab ko'rish metodi. Ta'lim shakli: «Biologik xilma-xillik kecha, bugun va ertaga». O'yining fikr-mulohazalar bosqichida qo'llaniladigan metod: relaksasiya o'yini – «Men kimman?», aqliy hujum.

Mashg'ulotning maqsadi. yaqin kelajakda biologik xilma-xillikni yo'qotish xavfi qanchalik jiddiy ekanligini ko'rsatish.

Qo'shimcha ma'lumot. Biologik xilma-xillik – bu tirik organizmlarning genetik, tur va yashash muhiti jihatdan turli tumanligidir. Shunday qilib u uch mezonda aks etishi mumkin:

1. Genetik xilma-xillik bir tur ichida genlarning xilma-xilligi.
2. Turlar xilma-xilligi bir hududda turlarning xilma-xilligi.
3. Ekotizimlar xilma-xilligi biosfera doirasida organizmlarning yashash sharoitining xilma-xilligi.

Biologik xilma-xillikning uchala mezonni ham yagona tizimni tashkil qiladi. Turlarning genetik xilma-xilligining kamayishi ilgari yagona bo'lgan yashash muhitini, ya'ni arealini o'zgarishi natijasida kelib chiqadi va yangi genlar oqimini susaytiradi. Natijada turlar nobud bo'lishi mumkin. Demakki, o'zgargan ekotizimda biologik xilma-xillik kamaya boradi.

Biologik xilma-xillik ekotizimlarning barqarorligi bilan bevosita bog'lik. Biosferaning barqarorligi umuman olganda turli tabiiy hodisalarga, jumladan antropogen ta'sirga bog'liqdir. Biologik xilma-xillikning kamayishi shakllangan ekologik bog'lanishlarning buzilishiga va tabiiy komplekslarning degradasiyasiga olib keladi. Biologik xilma-xillikni saqlab qolishning juda ko'p sabablari bor. Avvalo, biologik turlar modda va energiya aylanishi, suv havzalarining tabiiy tozalanishi singari «ekologik funksiyalarni» bajaradi. Bir turning mavjudligi ikkinchi bir turga bog'liqdir. Shuning uchun ham bir turning qirilib ketishi boshqa bir qator turlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Odam ham biologik tur sifatida qolgan organizmlarning mavjudligiga bog'liq holda yashaydi. Nihoyat, har bir

tur va har bir ekotizim atrofimizdagi muhitning turli-tumanligiga o'z hissasini ma'lum darajada qo'shadi.

Biologlarning fikriga ko'ra organizmlarning 5 mln.dan to 30 mln. gacha turlari mavjud ekan. Ohirgi ma'lumotlar ularning 10 mln. atrofida ekanligini ko'rsatmoqda Sistematiklar esa bor-yo'g'i 1,4 mln. organizm turlariga nom berishgan, xalos. Turlarning xilma-xilligi mayda mikroorganizmlar, hasharotlar va okeandagi mayda jonivorlar o'rtasida juda ko'p tarqalgandir.

Jamiyatda hozirgi zamon qonunlarini o'rnatishdan ilgari ham, ov qilish va yovvoyi turlar bilan savdo-sotiq qilishlarni cheklash orqali qabilalar va xalqlar o'z tabiiy muhitlarini muhofaza etishgan. Jahon xalqlari bioxilma-xillikni saqlash uchun mahalliy miqyosda ko'pgina ishlarni qilganlar. O'simlik va hayvonlarni qo'riqlaydigan joylarni tashkil etganlar. Lekin so'nggi yillarda shu narsa ayon bo'ldiki, mazkur mahalliy chora-tadbirlar dunyo miqyosida biologik xilma-xillikni saqlab qolish uchun yetarli emas. Yuzlab olimlar o'tkazgan tajribalarining natijasi sifatida 1992 yilda «Biologik xilma-xillikni saqlash to'g'risidagi» konvensiyani qabul qilishga olib keldi. Konvensiyada biologik xilma-xillikni yo'qotishning asosiy sabablari yetib quyidagilar ko'rsatilgan:

- ▶ aholi sonining o'sib ketishi;
- ▶ resurslardan foydalanishning ko'payishi;
- ▶ biologik tur va ekotizimlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lmilik;
- ▶ tabiiy resurslardan foydalanish siyosatining yetarlicha ishlanmaganligi;
- ▶ xalqaro savdoning salbiy oqibatlari;
- ▶ resurslarning adolatli taqsimlanmaganligi;
- ▶ biologik xilma-xillikning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini tushuna ytnaslik yoki uni inkor etish.

Mashg'ulotning borishi:

O'yin: «Biologik xilma-xillik kecha, bugun va ertaga».

O'yinga ajratilgan vaqt: 25 daqiqa.

Kerakli materiallar: Vatman varog'i yoki A-3 formatdagi qo'zg'oz, markerlar.

O'yinning borishi: Guruh uchta komandaga bo'linadi. Har bir komandaga bir varoq vatman qog'ozi beriladi va 10 daqiqadan so'ng Yer sayyorasida biologik xilma-xillik o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda qanday bo'lishi mumkinligini tassavvur qilib ko'rishadi. Kishilar hayvonot va o'simlik dunyosini tiklash va ularni muhofaza qilish borasida qo'l qovushtirib o'tirishsa nima bo'lishini tasvirlaydilar. Komandalar vaziyatni chizishlari yoki belgilar orqali tasvirlashlari mumkin. Komandalar tayyor bo'lganlaridan keyin, birin ketin o'zlarining tasvirlagan hikoyalarini aytib berishadi. Oxirida esa komandalar o'zlari chizgan rasmlarini ko'rsatishlari va ularni solishtirishlari lozim. Shubhasiz, vaziyat keskinlashadi.

Xulosa: hamma ishtirokchilar tabiat komponentlarining degradatsiyasi va biologik xilma-xillikning kamayishi yomon oqibatlarga olib kelishini anglashlari va o'zlarida his etishlari lozim.

«Men kimman?» – relaksasiya o'yini

Bir necha xohlovchilar taklif etiladi. Ularning orqabellariga O'zbekistonda kam bo'lgan yoki yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlarning nomi yozilgan varaqalar qadaladi. Ishtirokchilarga mazkur flora va faunlarning asosiy belgilari bo'yicha (qayerda yashaydi, nima bilan oziqlanadi, qanday ko'rinishga ega) tavsif beriladi. hattoki, tegishli organizmning o'ziga xos tomonlarini mimika orqali ko'rsatib berish ham mumkin. Lekin ularning aniq nomini shipshimoq yoki aytib bermoq mumkin emas. Vazifa: varaqada yozilgan turning nomini aniqlab berish. Hammadan tez «Men nimanman?» (qaysi hayvon haqida gap ketayotganligi) savoliga topgan shaxs qolib bo'lib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan noyob va yo'qolib borayotgan flora va faunadan misollar. Ba'zi vakillarining ro'yxati:

O'simlik dunyosi: Greyg lolasi, Motor piyozi, Sharq platani (Chinor), Muskus ferulasi.

Sut emizuvchilar: Hor barsi (Irbis), Buxoro bug'usi (Hongul); Menzbir sug'uri, Tyanshan echkisi (Arhar), Tyanshan qo'ng'ir ayig'i, Manul.

Sudralib yuruvchilar: Kulrang varan, O'rta Osiyo kobrasi.

Qushlar: Sterh (Oq turna), Burgut, hor grifi.

Baliqlar: Orol shipi, Orol usachi, Amudaryo yolg'on kurakburuni, Sirdaryo yolg'on kurakburuni.

Mashg'ulotning keyingi bosqichi - «Aqliy hujum».

Biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga doir loyihalar himoyasi.

Guruhlar aniq bir o'simlik yoki hayvon turi yoxud umumiy muammo bo'yicha loyiha qilishi mumkin. Ishni komandada turgan vatman yoki oddiy qog'ozda davom ettirish mumkin.

Loyihani quyidagi reja asosida ishlab chiqish zarur (har bir komandaga ishlash uchun 10 daqiqa beriladi).

1. qo'yiladigan muammolar. qanday sabablar tabiiy muhit yoki aniq bir turning yo'qolishiga olib kelmoqda (misolni «Men nimaman?» mashg'ulotidan olish mumkin).

2. Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha o'z variantlarini va metodlarini ishlab chiqish va tavsiya etish.

So'ngra loyihalar tavsiyasi va himoyasi bo'lib o'tadi (har bir komandaga prezentasiya uchun 5 daqiqa beriladi).

Xulosa: Sayyoramizda biologik xilma-xillikning kamaya borishi organizmlar yashash muhitining buzilishi, qishloq xo'jaligida resurslardan samarasiz foydalanishlik va atrof-muhitning ifloslanishi. Bunda inson, ya'ni antropogen omil juda katta ahamiyat kasb etadi va u kishilik jamiyatining barqaror rivojlanishi uchun katta xavf tug'diradi.

7-amaliy mashg'ulot. «KIMNING CHIQINDISI FOYDALIROQ» O'YINI

Mashg'ulot metodi. Misollarda o'qitish. Rolli o'yin.

Bunday mashg'ulotni o'tkazishda real hayotiy vaziyatlardan misol olinadi va uning tavsifi haqida o'yin ishtirokchilariga tarqatiladi. Ishtirokchilarning vazifasi esa mazkur holatdan chiqib ketish, alternativ imkoniyatlarni ifoda etish va eng samarali yo'llarni aniqlash. Ishtirokchilar berilgan topshiriqni muvofiq qilib qiladilar, muammoli masalalarni hal qilishni o'rganadilar, nazariyani amaliyot bilan bog'laydilar.

Mashg'ulotning maqsadi. Tabiiy resurslardan ongli ravishda foydalanish chiqindilarni utellastirishga nisbatan mas'uliyatliroq munosabatda bo'lish.

Mashg'ulotni olib borish:


Biz 4-mavzu «Barqaror hududlar va shaharlar muammosi» mavzusidagi amaliy mashg'ulotda ekologik muammolar va ularning kelib chiqish sabablari to'g'risida gapirgan edik. Bugungi kunda tez ko'payayotgan shahar aholisi uchun eng dolzarb muammolardan biri – bu chiqindilardir.

Chiqindi – inson faoliyatiga xos bo'lgan hodisadir. Tabiiy tizimlarda esa hech qanday chiqindi bo'lmaydi. hayotiy faoliyat jarayonida insonlar: resurs (maxsulot) chiqindi tizimi bo'yicha yashaydilar. Bu narsa tabiiy hodisa va jarayonlar uchun xos emas, demak, inson o'zi chiqargan chiqindisini qayerga qo'yish yoki ishlatish masalasini o'zi hal qilmog'i lozim. Ayniqsa bu muammolar tabiat uchun yod bo'lgan kimyoviy-sintetik materiallarga qaratilgandir. Chunki ular modda aylanish jarayonida deyarli ishtirok etmaydi.

Mashg'ulotni «Chiqindi inson uchun nimasi bilan xavfli» degan savol bilan boshlamoq maqsadga muvofiq.

Tinglovchilar taklif qilayotgan fikr va mulohazalarni doskada yozib boring. Keyin tinglovchilarni kichik komandalarga (5-10 kishidan iborat bo'lgan) bo'lib chiqing va «Kimni chiqindisi foydaliroq» o'yinini tavsiya eting.

Ishtirokchilarga o'rtacha ta'minlanganlik darajadagi oilada axlat chelagiga to'planadigan maishiy chiqindining nimalardan iboratligi haqidagi ro'yxat beriladi. Ishtirokchilar maishiy chiqindidagi narsalarni oilada kimga tegishli va narsaning nechog'lik foydaliligi yoki zararli ekanligini aniqlashlari kerak. Buning uchun chelakdagi maishiy chiqindini ishtirokchilar uchta qismga – foydali, zararli, juda zararlilarga bo'lib chiqishlari lozim. Qaysi sifatlariga ko'ra biz maishiy chiqindilarni ushbu qismlarga bo'lib chiqishimizni tushuntirib bermoq zarur. Taqdimot (prezentasiya) tayyorlanadi. Komandalar ishlashi uchun 20 daqiqadan vaqt beriladi. Taqdimot uchun esa – 10 daqiqa davom etadi.



O'rtacha ta'minlanganlik darajadagi oila tarkibi: Otasi – 35 yoshda. Businessmen, ko'pincha xorijiy mamlakatlarda bo'ladi, qo'shni davlatlar bilan savdo qilishda qatnashadi. Kompyuter bilan ko'p ishlaydi, yozadi, chekadi. Onasi – 32 yoshda, uy bekasi. O'g'li – 7 sinf o'quvchisi, rasm chizishni yaxshi ko'radi. Iti – SHarik 2 yoshli.

Chelakdagi maishiy chiqindining tarkibi:

Tuhum po'stlog'i, «Tyanshan» mineral suvidan bo'shagan plastik idish, pivodan bo'shagan metall banka, piyoz po'sti, kartoshka

po'sti, g'ajilgan suyak, eski gazeta, bo'sh sigaret pachkasi, teshik kastryul, chizilgan albom varoqlari, pochta konverti, sosiskalar saqlangan sellofan qog'oz, plastmassadan yasalgan singan mashina, «Snikers» shokoladining qog'ozi, bankalarning qopqog'i (bittasi plastmassadan, ikkinchisi esa tunukadan), teshilgan paypoqlar, ishlatilgan daftar, ishdan chiqqan flomaster, ishlatilgan avtoruchkalar, chekib tashlangan sigaretlar, mato qiyqimlari, vino shishasi, poyabzal korobkasi, g'altak.

Shunday qilib uy bekalarida hammadan kam chiqindi chiqar ekan. Bolalar va erkaklar esa ko'proq xavfli va zararli axlatlar tashlar ekanlar. O'yin jarayonida boshqa kutilmagan xulosalar ham paydo bo'lishi mumkin.

O'yin ishtirokchilari chiqindilarni taxminan qanday tasniflashlari mumkin:

Foydali, ya'ni qayta ishlatish yoki chiritish imkoniyati bor maishiy uy chiqindisiga – tuhum po'stlog'i, piyoz po'sti, kartoshka po'sti, g'ajilgan suyak, pivodan bo'shagan metall banka, eski gazeta, sigaret pachkasi, teshik kastryul, chizilgan albom varog'i, pochta konverti, teshilgan paypoqlar, eski daftar, mato qiyqimlari, vino shishasi, poyabzal korobkasi, g'altak, tunuka qopqog'i.

Zararli, ya'ni qayta ishlatish yoki chiritish imkoniyati kam maishiy uy chiqindisiga – plastmassadan yasalgan singan mashina, chekib tashlangan sigaret qoldiklari.

Juda zararli, ya'ni qayta ishlatish yoki chiritish imkoniyati yo'q maishiy uy chiqindisiga – «Tyanshan» mineral suvidan bo'shagan plastik shisha, sosiskalar o'ralgan sellofan qog'oz, «Snikers» qog'ozi, plastmassali qopqog, flomaster, ruchkalar.

Har birimiz yil davomida tonnalab chiqindilar chiqaramiz. Agarda Sayyoramizdagi hamma aholining yillik chiqindilarini bir joyga to'playdigan bo'lsak, u holda Elbrus cho'qisidek «axlatdan tog'» (a.b. 5642 m) hajm qilish mumkin. Planetamizning har bir kishisi uchun yiliga 26 ming tonna mineral xom ashyo ishlatilar ekan va undan bor-yo'g'i o'rtacha 2% (ya'ni 250 kilogramm) to'lig'icha o'zlashtiriladi. qolgani esa chiqindiga aylanar ekan.

Ishtirokchilar amaliy mashg'ulot davomida uncha murakkab bo'lmagan arifmetik hisoblashlar bilan mashg'ul bo'lishlari tavsiya

etiladi, lekin ularning natijalari va raqamlari eng ishonmaydigan qatnashchiga ham ta'sir qiladi:

Vazifa: «Shahrimdan qancha chiqindi chiqadi».

Sizni oilangizda har kuni necha kilogramm axlat tashlanadi va bu raqamni yozing (X). So'ngra, olingan raqamni oila a'zolarining soniga bo'lib chiqing va axlatning har bir oila a'zosiga to'g'ri kelgan miqdorini aniqlang (Xo'r). Endi, tassavvur etamiz, Sizning shahringizda 500 000 ta odam yashaydi, deb. Agarda har bir odam kuniga Xo'r kilogramm axlat tashlasa, shaharda har kuni qancha axlat tashlanadiq 1 yil – 365 kun. Shahringizda yiliga necha kilogramm axlat tashlanadiq

Shunday hisob-kitoblar bizni o'z chiqindilarimiz ostida qolib ketish mumkin ekanligi to'g'risidagi xavfni aniq qilib ko'rsatib beradi. Oldingi amaliy mashg'ulotda ishtirokchilarning bittasi, albatta, chiqindilarni qayta ishlash haqida biron-bir fikrini aytgan bo'lishi lozim. Haqiqatdan ham bunda ramziy ma'no bor, chunki bu nafaqat shahardagi ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilmasdan, balki cheklangan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ham undaydi.

Shaharlarimiz va atrof muhitning chiqindilar bilan ifloslanishining oldini olish hamda Yer resurslaridan oqilona foydalanish uchun turli metodlarni ishlab chiqish zarurligini taklif eting. Eng qiziqarli takliflarni doskaga yozib qo'ying. So'ngra, ularning mualifi tomonidan statistik ma'lumotlarni va qiziqarli raqamlarni o'qib berish tavsiya etiladi.

Masalan: Makulaturadan turli maxsulotlarni ishlab chiqarish tufayli atmosfera havosiga zararli chiqindilar chiqarilishi – 74%, suvga esa – 35%gacha kamaytiriladi. Natijada o'rmon resurslari saqlab qolinadi, chunki makulaturaning bir tonnasi 12 ta daraxtni kesilishdan saqlab qoladi.

Tabiiy resurslardan insonlarni foydalanish hajmini quyidagi misollar orqali keltirish mumkin:

- Bir dona alyumin bankasini qayta ishlatish orqali 2 litr benzin yonishidan hajm bo'lgan energiya tejaladi.

- «Nyu-York Tayms» ro'znomasining yakshanba kungi tiraji 75 ming daraxtni kesishdan hajm bo'ladi.

► Amerikalilar har yili 18 mlrd. dona bir marotoba ishlatiladigan plyonkalarni tashlaydilar. Ularni bir-biriga ulab chiqilsa Oyga 7 marotoba etadigan darajadagi plenka arqonini hajm qilish mumkin.

► Har uch oyda AQSH alyuminiyni butun Amerikaning havo majmui, temir va po'latni butun mamlakatning yillik avtomobil sanoatiga yetadigan miqdorda tashlar ekanlar.

Shuning uchun ham 2030 yilga kelib barqaror iqtisodiyotdagi sanoat uchun xom ashyoning asosiy manbai bo'lib ikkilamchi resurslar hisoblaniladi. Bunga Xitoyning chiqindilarni sotib olish siyosatini, yaqqol misol qilib keltirish kerak.

Resurslardan foydalanish tejamkorligini oshirish va chiqindilar masalasini hal qilish asosiy yo'llari quyidagilardan iborat (muammoning dolzarbligiga qarab joylashtirilgan):

› Iste'molni kamaytirish, ya'ni misol tariqasida maxsulotlarni o'rovchi moslamalarning sonini kamaytirish hamda bir marotoba ishlatiladigan o'rovchi materiallarni ko'p ishlatiladiganlari bilan almashtirish.

› Chiqindilarni qayta ishlatish va kompostlarni tayyorlash.

› Qayta joylashtirish va ta'mirlash.

› Ikkilamchi resurslarni qayta ishlash.

8-amaliy mashg'ulot. EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH – ZAMON TALABI

Mashg'ulot metodi. Vaziyatli modellashdirish.

Mashg'ulotning maqsadi. Qarorlarni qabul qilishda kishi ravshan va ongli qaror qabul qilishi qanchalik muhim ekanligini ko'rsatish. Inson sivilizasiyasining kelajagi faqatgina ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash orqali ekanligini talabalarga yetkazish.

Siyosiy va iqtisodiy maydondagi «o'yinchilar» – bu siyosiy arboblardan, salobatli xalqaro tashkilotlardan, tadqiqotchilardan va ekspertlardan, deb o'ylashga o'rganib qolganmiz. Biroq bugungi kunda shu narsani tushunmoq kerakki, mazkur sohada o'z kuch-g'ayratini ayamayotganlar, bizning uyimizda bo'layotgan voqealarga beparvo bo'lmayotganlar ham shunday «o'yinchilar» bo'lib qolishlari mumkin. Har birimiz bevositami yoki bilvositami atrofimizdagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatishimiz mumkin. Aynan bugungi kunda «kuzatuvchi»dan «faoliyatchi»ga aylanmoqlikning mavridi keldi.

Kelajak avlod psixologiyasi va ongi haqida gapirishdan avval mini testlarni o'tkazing. Testlarni har bir kishiga alohida bermoq hamda ishtirokchilar bir-birlariga halaqit bermaydigan, samarali ishlash muhitini yaratmoq zarur.

Mini testlar:

1. Agar meni daraxt ekishga jalb etishsa, men:

- A) mamnuniyat bilan ishtirok etar edim
- B) hamma qatnashsagina ishtirok etgan bo'lar edim
- V) hech narsa qilmaslik uchun biror bahona topishga harakat qilgan bular edim - 1.

2. Siz yashayotgan hududda aholini ish bilan ta'minlovchi, biroq atrof-muhitni ifloslantiruvchi korxonani qurish rejalantirilmoqda:

- A) Siz hech narsa qilmaysiz - 1.
- B) Uni qurish uchun qo'lingizdan kelgan harakatni qilasiz - 2.
- V) Vaziyatni tushunishga harakat qilib, ishsizlik muammosini hal qilish uchun alternativ variantlarni izlashga harakat qilasiz - 3.

3. *Hokimiyat qoshidagi Jamoatchilik Kengashi a'zoligiga Sizni tavsiya etishsa:*

- A) Bu narsa obro'li bo'lgani uchun ham Siz rozi bo'lasiz - 2.
- B) Rozi bo'lasiz, chunki shundan foydalanib Siz biror narsani o'zgartirishingiz mumkin - 3.
- V) Tavsiyani rad qilasiz - 1.

4. *Daryoga axlatlar tashlanayotganligiga guvo? bo'lsam, men:*

- A) E'tibor bermagan bo'lar edim - 1.
- B) Prokuraturaga, ro'znomalarning ta'ririylariga, radio-televideniaga habar bergan bo'lar edim - 3.
- V) Zavod direktoriga norozilik xatini yozgan bo'lur edim - 3.

5. *Mening hayotim og'irlashayotganiga kim aybdor:*

- A) Hukumat - 1.
- B) O'z-o'zidan shunday bo'lib qoldi - 2.
- V) O'zim - 3.

6. *Yo'lka yoki atrofingizda qoldirgan ahlatni ko'rsangiz, Siz:*

- A) E'tibor bermaysiz - 1.
- B) Axlatingizni «o'sha uyumga» Siz ham tashlaysiz - 1.
- V) hokimiyatning mahalliy idorasiga qo'shimcha axlat qutisini qo'yishlari uchun murojaat qilasiz - 3.

Agarda mazkur mini-testlarda Siz 10-15 ball to'plasangiz, Siz 3-guruhga qarashlisiz. Agarda 5-10 ball to'plasangiz - 2-guruhga. Agarda 0-5 ball to'plasangiz - 1-guruhga.

1-guruh. Siz tezlik bilan o'zingizning fuqaroviy poziciyangizni o'ylab ko'rishingiz kerak. Atrofdagi narsalarga shunchalik befar? bo'lmaslik lozim. Ishtirok etish g'oyasining o'zi Siz uchun muammodir. Sizda iste'molchilik g'oyasi barqarordir. Siz o'zingiz va oilangiz uchun munosib hayotni ta'minlashga harakat qilganingiz sari, «porloq kelajak» Sizdan uzoqlashveradi, chunki bu poziciyadagi odamlarning soni, afsuski ko'pchilikni tashkil etadi.

2-guruh. Siz o'zingiz hamda shahringiz hayotida nimadir o'zgarishini hoxlaysiz, lekin qaysi metod va qanday yo'l bilan bunga erishish mumkinligini bilmaysiz. harakatlaringiz to'g'riligiga ishonchingiz yo'q. Sizda barqaror rivojlanish g'oyalarini anglash etarlicha emas. Agar Siz bu guruhga kirgan bo'lsangiz, mazkur qo'l-

lanma Sizning dunyoqarashlaringizni aniqlashga va kerakli malakalar shakllanishiga yordam beradi. Aynan shu davrda Siz hamfikrlar yordamiga mu?tojsiz.

3-guruh. Tabriklaymiz, chunki Sizning hayot tarzingiz faol bo'lgan shahsdirsiz va atrofingizda bo'layotgan hodisalarga ta'sir etishda ijobiy tajribaga egasiz. Siz dunyoda o'zingizga muvofi? ravishda yangi, jahonshumul ahamiyatdagi pog'onaga ko'tarilishingiz mumkin. Unda Siz yanada mas'uliyatliroq va javobgarliroh bo'lishingiz mumkin. Barqaror kelajak Sizga o'hshash kishilar bilandir.

«Vaqt mashinasida ekologik sayohat» o'yini

O'yin uchun kerakli narsalar: vatman yoki A-3 qog'oz varaqlari, markerlar.

Sayohatimizni savollarni muhokama qilish bilan boshlay-miz:

Kelajagimizni qanday bo'lishini ho'xlaymiz? Javoblar tahminan quyidagicha bo'lishi mumkin: «tinch», «farovon», bahtli», «urushlar, fojialar va tub ijtimoiy o'zgarishlarsiz», «toza atrof-muhit va tabiat bilan o'zaro uyg'unlikda» va h.k.

Shunday kelajakka erishish uchun hozirgi kunda kishilik jamiyati nimalar qilmoqda ha, javoblarni berish qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Misollar keltirilmo?da, lekin ular aniq va ishonarli emas.

Shunday porloq kelajakni ta'minlash uchun hozirgi yoshlar nimalar qilmoqda? Uchinchi savolga javob berayotib, kelajak uni yaratib beruvchi kishilarga bevosita bog'lik ekan, degan hulosaga kelishimiz mumkin.

O'yinning keyingi bosqichida mashg'ulotning barcha ishtirokchilarini 5-10 kishidan iborat bo'lgan komandalarga bo'lishimiz kerak. Komandalarning ishlashlari uchun kerakli materiallarni berib, topshiriqni tushuntirmog'imiz lozim.

Komandalar uchun vazifa:

«Ekologik havfsiz» davlatga sayohatni tasvirlab berish. O'yin ishtirokchilari «hozirgi zamon» davlatidan «Ekologik havfsiz» davlatga qilinadigan sayo?at yo'lini shematik tarzda ko'rsatib berishlari kerak (komandalarga 15-20 daqiqa beriladi).

Kartada shartli belgilar yoki simvollar yordamida «Ekologik havfsizlik»ka erishish yoʻlidagi kutilayotgan barcha toʻsiqlar koʻrsatilishi zarur. Ushbu yoʻl egri-bugri boʻladi va sayohatchilar unda turli qiyinchilik va havflarga duch kelishlari mumkin.

«Ekologik havfsizlik»ka etish yoʻli bilan birga komandalar «hozirgi zamon» va tassavvur etayotan «Ekologik havfsiz»ni koʻrsatishlari lozim.

«Ekologik havfsizlik»ka etishda komandalar barcha muammolarni va havflarni engish uchun lozim boʻlgan hamma metodlarni va choralarni sanab oʻtishlari lozim (shu erda ishtirokchilar maʼruzalar davomida olgan nazariy bilimlarining darajasini koʻrsatmoqlari lozim).

Komandalar qilgan ishlarini prezentaciya qilishlari kerak har bir prezentaciyaga 5 daqiqa ajratiladi). Olib boruvchi komadalarning ishlarini jamlab, ularga hulosa berishi lozim. Eng qiziqarli, ijodiy va maʼnoli ishlarni ajratib olib, ularni ragʻbatlantirmoq zarur.

Oʻyin hulosasi: «Ekologik havfsizlikni taʼminlash»da kishilarga nafaqat siyosiy va iqtisodiy omillar hamda atrof-muhitni muhofaza qiluvchi mutahassislargina emas, balki ekologik savodli, fikrlaydigan va madaniyatli kishilar kerakligini uqtirish lozim. hozirgi va kelajak avlodlar Sayyoradagi hayotni saqlashga intiluvchi kishilargina bunga erishishlari mumkin. Aynan bugungi kunda kishilarning «kuzatuvchi»lik holatidan «faol» holatiga oʻtishlariga vaqt keldi. Barqaror rivojlanish faqatgina ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni birgalikda hal qilishda, ularning uygʻunlikdagi rivojida amalga oshishi mumkin. Shu bilan bir qatorda ekologik fikrlash va Erdagi odamlarning masʼuliyatli munosabati ham oʻta muhimdir. Kelajak – insonlar qoʻlidadir.

*Ushbu oʻyin oʻqituvchi tomonidan oʻzining
oʻqitish uslubiga asoslangan boʻlib, oʻqituvchi tomonidan*

EKOLOGIYAGA OID ASOSIY ATAMA VA IBORALAR LUG'ATI

Agrar zonalar – qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan alohida bir ekologik-huquqiy holatga ega erlar.

Muhofaza etiladigan hududlar – tarixiy-madaniy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik funkciyalarni bajaruvchi alohida huquqiy holatdagi va davlat e'tiboridagi hududlar va ob'ektlar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – ekologik-madaniy sog'lomlashtirish, ilmiy, estetik, muhofaza rekracion (dam olish) funkciyalarni bajaruvchi alohida huquqiy holat va davlat e'tiboridagi tabiiy hududlar va ob'ektlar.

Atmosfera havosi – qonun bilan muhofaza etiladigan Er sayyorasini o'rab turuvchi gaz va bug'lardan iborat bo'lgan qatlam.

Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi – insonlarni o'rab turuvchi tabiiy muhit unsurlarini muhitning ekologik-huquqiy talablardan ortiq me'yorda fizik va biologik ifloslanishi hamda kimyoviy jihatdan o'zgarishi.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbai – xalqaro miqyosda ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

Atrof-muhitni xalqaro muhofaza qilish – insonlarning ekologik havfsiz muhiti va davlatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi xalqaro prinsiplar, normalar va munosabatlar yig'indisi va ularni amalga oshirish mehanizmi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi – hozirgi avlod ehtiyojlarining qondirilishi va kelajak avlodlarning munosib hayot kechirishga bo'lgan huquqini hisobga olgan tarzda amalga oshirilishi haqidagi qarashlar tizimi.

Baliq ho'jaligi zonolari – nodir va yo'qolib ketayotgan baliq turlari va boshqa suv organizmlarini muhofaza etish va ko'paytirish maqsadida, shuningdek, baliq ho'jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniладigan suv ob'ektlari yoki ularning bir qismi.

Botanika bog'i – o'simlik ternalari(kollekciyalari)ni tuzish, to'ldirish va asrash, ilmiy, o'quv-ta'lim ishlarini olib borish yo'li bilan mahalla va jahon miqyosidagi o'simlik majmualarining nodir

va muayyan turkumga hos turlarini mahsus yaratilgan sharoitda asrash, o'rganish, iqlimlashtirish, ko'paytirish hamda ulardan samarali va oqilona foydalanish maqsadida tashkil etilgan bog'.

Buyurtma qo'riqxona – tabiiy majmualar yoki ularning ayrim komponentlarini asrash, ko'paytirish va tiklash maqsadida tashkil etilgan muddatli hududlar (akvatoriyalar).

Er nazorati (inspeksiyasi) – mahalliy hokimiyat va davlatning mahsus vakolatli organlari tomonidan er munosabati qatnashchilari sub'ektlarining er uchastkalaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir faoliyatlarini tekshirilishi.

Milliy bog' – tabiatni muhofaza qilish muassasi hisoblangan alohida ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan hamda tabiatni muhofaza qilish, rekraciya, ma'rifiy-madaniy, ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan tabiiy majmua.

Tabiat yodgorliklari – ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob, o'rmini to'ldirib bo'lmay, qimmatli, kelib chiqishi tabiiy bo'lgan ob'ektlar.

Davlatning ekologik boshqaruvi – o'z vakolat doirasida davlat boshlig'i, hokimiyat va ijro etuvchi davlat organlarining ekologik munosabatlarini tartibga solishdagi faoliyati.

Dendrologiya bog'i – ilmiy, madaniy, rekraciya va boshqa yo'sinda samarali foydalanish uchun tashkil etilgan daraxtlar va butalarning xar hil turlarini hamda ulardan tarkib topgan daraxtzor va butazorlarni mahsus yaratilgan sharoitda asrash va o'rganish maqsadida tashkil etilgan bog'.

Dekleratsiya – ma'lum bir tashkilot, davlat yoki partiyalarning asosiy princip va me'yorlarini tantanali ravishda e'lon qilishga yo'naltirilgan xalqaro hujjat.

Er osti boyliklarining ekologik funksiyasi – ekologik tizimda turuvchi, er ostining tabiiy fundamenti, tuproq va ularni hosil qiluvchi ona jinslarining tarkib topishidagi mineral asos.

Er osti boyliklarining madaniy-sog'lomlashtirish funksiyasi – er qa'ri va minerallarning foydali xususiyatlarini insonlarning dam olishi va salomatligini tiklashda ishlatilishi.

Er tuzish – erlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, er resurslarini hisobga olish va baholashga,

qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, er tuzishning huquqiy va ichki xo'jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Erlarni muhofaza qilish – ulardan belgilangan maqsadda oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini, o'rmon fondi erlarining samaradorligini tiklash va oshirish, qishloq xo'jalik oborotidan va alohida muhofaza etiladigan hududlarning erlari tarkibidan erlarning asossiz ravishda olib qo'yilishining oldini olish, ularni zararli antropogen ta'siridan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimi.

Jamoat ekspertizasi – fuqarolar, fuqarolar yig'ini, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari hisobidan ekologik ekspertizani o'tkazish. Ularning hulosalari tavsiya kuchiga ega.

Jamiyat qonunlari – kishilarning hatti-harakatlarini yoki biron-bir ob'ektga nisbatan munosabatini belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisi.

Jamoat er nazorati – erlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish borasidagi er qonunchiligi talablariga rioya etishni nodavlat, notijorat tashkilotlari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari tomonida tekshirish.

Javobgarlik – muayyan shahs, jamoa yoki davlatning o'zga shahslar, jamoatchilik, davlat va davlatlar davlatlar oldidagi burchi, majburiyati.

Milliy ekologik boshqaruvi – hokimiyat, organlari, birlashmalari, tashkilotlari va ularning tabiatini muhofaza qilish vakolatlari, funkciyalari va metodlari majmuasi.

Milliy ekologik qonunlar – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki umumxalq ovoz berish (referendum) orqali qabul qilingan, o'zida uning amal qilish muddati, hududi va shahslar doirasida ekologik munosabat sub'ektlari faoliyatining umumiy ko'rsatkichlarini mujassamlashtirgan normativ-huquqiy hujjatlar.

Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va yuridik shahslar tomonidan ihtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) kellişini o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda

olingan daromadlarni(foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.

Ov qilish – tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi hayvonlarni tutish maqsadida izlash, iziga tushish va quvlab borish, tutishga intilish va tutish (otish, tutib olish).

Rekratsiya zonolari – turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun qulay geografik va iqlim sharoitlariga ega hududlar.

Sanoat zonasi - sanoat tarmoqlari joylashgan va ishlab chiqarish faoliyati yurgiziladigan hududlar.

Sug'oriladigan erlar – qishloq ho'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu erlarni sug'orishini ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy va muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan erlar.

Suvdan oqilona foydalanish – suvning foydali xususiyatlaridan jismoniy va yuridik shahslarning qonun talablari asosida foydalanish.

Suvni muhofaza qilish mintaqalari – daryolar, ko'lla, suv omborlari, kanallar, kollektorlar hamda boshqa suv ob'ektlarining o'zanlariga tutash suvlarni muhofaza qilish maqsadida tashkillashtirilgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

Tabiiy ob'ektlarga nisbatan mulk huquqi – tabiiy resurslar, tabiiy komplekslar yoki tabiiy hududlarni kimga tegishliligi va mulkdorning unga nisbatan qanday vakolat (huquq) ga ega ekanligi.

Tabiiy resurslarning buzilishi – atrof-muhit holatini inson yashashi uchun noqulay darajada o'zgarishi.

Tabiat resurslarining oriqlanib ketishi – insonlarning hayotiy zarur ehtiyojlarining iqtisodiy shaklda qondirilishi natijasida tabiiy resurslarning kamaya borishi.

Tabiat resurslarining vayron bo'lishi – tabiiy ob'ektlarni tabiiy va tehnogen jarayonlari natijasida tabiiy hossa va xususiyatlarining yo'qolishi.

Tabiat resurslarining yo'q bo'lib ketishi – ayrim turdagi o'simlik va hayvonot dunyosining er yuzida tur sifatida yo'qotilishi.

Tabiat va kishilik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar shakli – ma'lum bir davrga hos bo'lgan kishilarning atrof tabiiy muhit bilan o'zaro uzviy bog'langan hayot tarzi.

Qizil kitob – yo‘qolgan yoki yo‘qolish arafasida turgan, yo‘qolib borayotgan, kamyob va kamayib borayotgan o‘simlik va hayvonot dunyosining genofondini saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan ma‘lumotlar ro‘yhati (reestri).

Qonun – oliy yuridik kuchdagi milliy huquq normasi. Uning qoidalari va me‘yorlari davlat tomonidan ishlab chi‘iladi, o‘rnatiladi, muhofaza etiladi, umummajburiy kuchga ega bo‘ladi va yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Qo‘riqlanma (oraliq) yoki bufer zonalar – ijtimoiy-ekologik va qo‘riqxona ekologik turdagi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tabiiy tehnolog jarayonlarning salbiy ta‘sirini oldini olish maqsadida tashkillashtirilgan hududlar.

Qo‘riqxona – alohida muhofaza etiladigan oddiy va noyob tabiiy majmualar, o‘simliklar va hayvonlarning irsiy fondlarini saqlab qolish va o‘rganish, tabiiy jarayonlar va hodisalar o‘zgarishi ustidan monitoring o‘tkazish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasasi.

Universal toifadagi Xalqaro ekologik tashkilotlar – faoliyat doirasiga ko‘ra turli toifadagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishidagi hamda dunyoning bara mintaqalaridagi davlatlarning ekologik munosabatlariga haratilgan xalqaro tashkilotlar, BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari.

O‘rmonlarni qo‘riqlash – vakolatlangan davlat organlari va jamoat birlashmalari tomonidan o‘rmonlardan noqonuniy tarzda foydalanish, ularga zararli ta‘sir ko‘rsatishdan qo‘riqlash.

O‘rmonlardan foydalanish huquqi – o‘rmonlarning foydali xususiyatlaridan yuridik va jismoniy shahslarning o‘z xo‘jalik va boshqa hayotiy ehtiyojlarini qondirishlari uchun qonun hujjatlaridan belgilangan tarzda foydalanishi.

O‘rmonlarni ko‘paytirish – o‘z ichiga daraxtzorlarning zichligini oshirish, nav tarkibini yaxshilash, qimmatli navlarni ko‘paytirish, boshqa er fondi toifalaridan (masalan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlardan) o‘rmon fondi er toifasiga kiritish kabi tadbirlar.

O‘rmonlarni muhofaza qilish – o‘rmonlarga zararkunandalar, kasalliklar, tabiiy-tehnogen jarayonlar (eroziya, sel, deflyatsiya, yong‘in, qurish) ning oldini olish chora-tadbirlarini qo‘llash.

O'rmonlarni tiklash – kesilgan o'rmon yoki o'rmonsiz er o'rninga daraxt va butalar ekish, nav tarkibini yaxshilash, ularni mahsuldorligi va muhofazalash xususiyatini oshirish, genetik fondi va biologik hilma-hilligini saqlab qolishga yo'naltirilgan tadbirlar.

O'rmonlarni mahsuldorligini oshirish – o'rmonlarni takroriy ko'paytirish, nav tarkibini yaxshilashni o'rmon meliorasiyasi va plantaciyasini tashkil etish orqali amalga oshirish.

O'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari – bag'oyat qimmatli va nodir o'simlik turlarining irsiy fondini muhofaza etish va saqlab qolish, shuningdek, o'rmon fondi maydonlarida qo'riqxonalar, milliy bog'lar va alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlarning ish tartibini ta'minlash maqsadida tashkillashtirilgan hududlar.

O'simlik dunyosi oby'ekti – tabiiy sharoitda o'sadigan, takror etishtirish va saqlash uchun ekib o'stiriladigan yovvoyi o'simliklar.

O'zbekistonni ekologik siyosati – davlatning tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida olib borayotgan ichki va tashqi faoliyat majmui.

Xalqaro ekologiya huquqi ob'ekti – xalqaro huquq sub'ektlarining ekologik munosabatlar predmeti bo'lgan tabiiy ob'ektlar, ya'ni o'zining xususiyati, joylashi va ahamiyati nuqtai nazaridan biron-bir davlat yuridikciyasiga kirmaydigan yohud nazoratida bo'lmaydigan, shuning uchun ham ikki va undan ortiq mamlakatlar yoki xalqaro jamiyati mulki bo'lgan tabiiy ob'ektlar.

Xalqaro ekologik jamg'arma (fondlar) – tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitning sanitar va gigienik holatini yaxshilash va ekologik dasturlarni moliyaviy ta'minlash kabi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekologik tashkilotlar. Faoliyat yurgizish va amaliy harakat qilish ko'lamiga ko'ra ular umumjahon, regional va regionlararo turlarga ajratiladi.

Xalqaro shartnoma – siyosiy ahamiyat kasb etuvchi va boshqa siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy masalalar qatori atrof-muhit muhofazasiga oid xalqaro me'yorlarni o'zida aks ettiruvchi hujjat.

Hayvonot bog'i – ekologik ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yish, hayvonlarning nodir ekzotik va mahalliy turlari ekspozitsiyalarini yaratish, ularning irsiy fondini saqlab qolish, yovvoyi hay-

vonlarni o'rganish hamda ularni tutqunlikda ko'paytirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish maqsadidagi muassasa.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar – hayvonot dunyosi ob'ektlarining foydali xususiyatlaridan o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida jismoniy va yuridik shahslarning qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va tartibda foydalanishlari. hayvonot dunyosini ekologik huquqiy muhofaza qilish – quruqlikda, suvda, atmosferada va tabiiy erkinlik holatida yashaydigan, O'zbekiston doimiy va vaqtinchalik yashaydigan yovvoyi hayvonlarni, shuningdek, ilmiy va ekologik maqsadlarda yarim erkin sharoitda yoki sun'iy yaratilgan yashash muhitida boqilayotgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish.

Ekologik audit – davlat ro'yhatidan o'tgan yuridik shahslar (audit firmalar) tomonidan ekologik ekspertizani mustaqil, tarmoqdan tashqari bo'lgan tarzda olib borish.

Ekologik barqarorlik – inson faoliyati va tabiat "injiqlik" lari (zilzila, toshqin, sunami va h.k.) ning atrof-muhitga salbiy ta'sir etmaydigan darajasi, ya'ni ma'lum bir hudud, kenglik va mintaqada ekologik havfsiz muhit holatini bir me'yorda ushlab turish.

Ekologik ekspertiza – rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatning ekologik ekspertiza ob'ekti ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash yoki mutahassislar tomonidan hulosalash.

Ekologik inqiroz – ekologik tizimda modda va energiya almashinuvining tabiiy holatda kechishining buzilishi yoki modda yoki energiya kichik va katta aylanish jarayonlarining ma'lum bir bosqichidagi uzilishi.

Ekologik siyosat – muayyan davlatda yoki xalqaro miqyosda ma'lum bir er, suv va havo kengligida yuzaga kelgan ekologik holatni hisobga olgan tarzda atrof-muhitni yaxshilash va sog'lomlashtirishga qaratilgan ichki va tashqi jismoniy-iqtisodiy harakat.

Ekologik tanglik – xalqaro hamjamiyat, davlat va jamiyat tomonidan global, regional va mahalliy miqyosdagi ekologik muammolar echimini topishning qiyinlashuvi.

Ekologiya fani – organizmlarning muayyan ekotizimlarda yashash qonuniyatlarini, ya'ni organizmlarning o'zaro va ularning atrof-muhiti bilan bo'lgan hayot tarzini o'rganuvchi fan tarmog'i.

Ekologik kadastr – muayyantabiiy ob'ektning geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilanib turiladigan (o'zgaruvan) ma'lumotlar va hujjatlar to'plami.

Ekologik konsepsiya – tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati to'g'risidagi, ya'ni bu moddiy dunyoda kishilarning o'rni, ahamiyatini aks ettiruvchi dunyoqarashlar.

Ekologik monitoring – atrof tabiiy muhit va tabiiy resurslarning davriy o'zgarishini (kadastr ma'lumotlariga asoslangan tarzda) kuzatib borish, hisobga olish, baho berish va istiqbolini belgilash tizimi.

Ekologik nazorat – ekologik munosabat sub'ektlarining tabiiy resurslardan oqilona foydalanishlari va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishlariga oid faoliyatlarini vakolatlangan davlat organlari, nodavlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari tomonidan tekshirib bori shva tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimi.

Ekologik-huquqiy javobgarlik – ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib, u milliy va xalqaro huquq normalarida belgilangan ekologik talablarni buzganlar uchun yuridik tisdagi jazo sanksiyalarini o'rnatilgan hamda ekologik munosabat qatnashchilari uchun majburiy kuchga ega bo'lgan qoida va me'yorlar.

Ekologik-huquqiy mehanizm – ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta'minlovchi qismlar (zvenolar) tizimi.

Ekologiya huquqi sub'ektlari – ekologiya huquqiy munosabat ishtirokchilari hamda sub'ektiv huquq va majburiyatlar egasi.

Ekologik-huquqiy munosabatlar – tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslaridan foydalanishda kishilar o'rtasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlar.

Ekologik-ijtimoiy javobgarlik – ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib, u hozirgi zamon milliy yoki xalqaro huquq normalarida belgilanmagan, lekin millat yoki xalqlarning azaliy urf-odatlarini, an'analari orqali avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan qoida va me'yorlar.

Ekologik soliq – tabiiy ob'ektlardan foydalanganliklari, shuningdek, atrof-muhitni ifloslantirganliklari uchun jismoniy va yuridik shahslardan doimiy, muddatli yoki bir marotibalik to'lovlar.

Ekologik havfsizlik – atrof tabiiy muhit holatini organizmlarning hayotiy zarur ehtiyojlariga javob bera olishi yoki insonlar uchun sog'lom, toza va qulay tabiiy sharoitga ega atrof-muhit holati.

Ekologik javobgarlik – ekologik havfsiz muhitni ta'minlashdagi davlat, jamiyat va shahslarning hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi burchlari va majburiyatlari. Bunda ularni bajarmasligi tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va yuridik harakterdagi salbiy o'qibatlar.

Ekologik jamg'arma – atrof-muhit muhofazasi va sanitar-gigienik holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni (dastur, reja, loyiha, konferensiya, munozara, uchrashuv, missiya) moliyaviy ta'minlash maqsadida tuzilgan pul jamg'armalari.

Ekologik sug'urta – sug'urtalanuvchilarning pul jamg'armalari hisobiga tashkil etilgan va ekologik havfli oqibatlar yuzaga kelganda, ularning moddiy va ma'naviy zararlarini qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan moliyaviy munosabat.

Ekologik memorandum – diplomatik mulohazalar predmeti bo'lgan ekologik masalalarni eks ettiruvchi hujjat.

Ekologik qaydnoma – ekologik tisdagi asosiy xalqaro shartnomaga qo'shimcha qilinadigan hujjat.

Ekologiyaning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik havfsiz muhitni ta'minlash.

Ekologiya o'quv predmeti – tirik organizmlar, shu jumladan, insonlarning atrof-muhit bilan bo'lgan hayot tarzi haqidagi ta'limni beruvchi o'quv qursi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR, NORMATIV- HUQUQIY HUJJATLAR VA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

O'quv va o'quv-metodik adabiyotlar

1. Каримов И. Танланган асарлар. – Т.: Ўзбекистон, 1996-2011. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

2. Ўзбекистон Республикасида атроф табиий муҳит муҳофазаси ва табиий ресурслардан фойдаланишнинг ҳолати тўғрисида Миллий маърузалар (2002-2008 йй.). – Т.: Chinot ENK, 2002-2009.

3. Ўсимлик дунёси объектларидан фойдаланишдаги экологик талаблар (ўрмон фондига кирмайдиган ҳудудлардаги дарахт ва буталарни кесиш). Услубий тавсиянома // Б.Б.Алиханов, А.Н.Нигматовларнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Экоҳаракат, 2011.

4. Ekologiya huquqi. Darslik. / Mas'ul muharrir M.B.Usmonov. – Т.: TDYI, 2006.

5. Арипов Д.У. Ўзбекистон Республикасининг “Чикиндилар тўғрисида”ги қонунига шарҳ. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2007.

6. Бринчук М.М. Экологическое право. Учебник. – М.: 2004.

7. Жураев Ю.А. Конституционные основы охраны окружающей природной среды в Узбекистане // Ж. Хукук, Право, Law. 2000. № 2.

8. Нигматов А. Ер ҳукуки. Ўқув қўлланма. – Т.: ТИУ нашриёти, 2001.

9. Нигматов А. Ўзбекистон Республикасининг Экология ҳукуки. Дарслик. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2004.

10. Нигматов А., Икромов Р. Ўзбекистонда фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини такомиллаштириш. Ўқув-метodik қўлланма. – Т.: ЎзМУ нашриёти, 2007.

11. Петров В.В. Экологическое право России. Учебник. – М.: Изд. Бек, 1997.

12. Ражабов Н.Ш. Экологик меъёрлашнинг ҳуқуқий муаммолари. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2007.

13. Ражабов Н.Ш. Экологик сертификатлаштиришни такомиллаштиришнинг айрим масалалари // Ж. Давлат ва ҳуқуқ, 2005. 2-сон.

14. Скрипников Н.К. Правовое регулирование организации и деятельности фермерского хозяйства. Учебное пособие для магистров. – Т.: ТГЮИ, 2009.

15. Табиий ресурсларга нисбатан мулк ҳуқуқи. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: ТДЮИ, 2007.

16. Умаров Д.М. Полномочия государственных органов общей компетенции в области охраны государственных заповедников Республики Узбекистан. – ТДЮИ Ахборот-номаси, Т., 2009. 1-сон.

17. Усмонов М.Б. Атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш муаммолари. // Ж. Қонун ҳимоясида, 2004. 7-сон.

18. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодексида шарҳлар // Масъул муҳаррир М.Б. Усмонов. – Т.: ТДЮИ, 2007.

19. Файзиев Ш.Х. Административная ответственность за нарушение экологического законодательства // Ж. Ижтимоий фикр. 2004. 1-сон.

20. Файзиев Ш.Х. Имущественная ответственность за причиненный вред природной среды // Ж. Хўжалик ва ҳуқуқ. 2004. 3-сон.

21. Файзиев Ш.Х. Юридическая ответственность за нарушения экологического законодательства. // Ж. Қонун номи билан. 2004. 1-сон.

22. Холмўминов Ж.Т. Экология ва қонун. – Т.: Адолат, 2000.

23. Холмўминов Ж.Т. Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш, иқлим ўзгариши ва озон қатлами бузилишини олдини олишнинг халқаро ҳуқуқий асослари // Фалсафа ва ҳуқуқ, 2009. 2-сон.

24. Экологик қонунчиликни қўллаш механизмини такомиллаштириш муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2007.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. — Т.: Ўзбекистон, 2009.

2. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. — 1998. 5-6-сон. 82-модда.

3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. — Т.: Адолат, 2004.

4. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Расмий нашр // Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Т.: Адолат, 2003.

5. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. — Т.: Адолат, 2004.

6. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Т.: Адолат, 2005.

7. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, — 2007 йил, 52-сон (I).

8. Ўзбекистон Республикасининг Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. — 1999. 1-сон. 20-модда.

9. Ўзбекистон Республикасининг Давлат ер кадастри тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. — 1998. 9-сон. 165-модда.

10. Ўзбекистон Республикасининг Давлат кадастрлари тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. — 2001. 1-2-сонлар. 18-модда.

11. Ўзбекистон Республикасининг Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Ахборотномаси. — 1993. 5-сон. 221-модда.

12. Ўзбекистон Республикасининг Ўсимлик дунёсини муҳофаза этиш ва ундан фойдаланиш тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. — 1998. 1-сон. 12-модда.

13. Ўзбекистон Республикасининг Хайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. – 1998. 1-сон. 14-модда.

14. Ўзбекистон Республикасининг Ўрмон тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. – 1999. -5-сон. 122-модда.

15. Ўзбекистон Республикасининг Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. – 1997.2-сон. 52-модда.

16. Ўзбекистон Республикасининг Ер ости бойликлари тўғрисидаги қонуни (янги таҳрири) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. – 2003. 1-сон. 5-модда.

17. Ўзбекистон Республикасининг Чикиндилар тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. – 2002. 4-5-сонлар. 72-модда.

18. Ўзбекистон Республикаси Суғурта фаолияти тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. – 2002. 4-5-сонлар. 68-модда.

19. Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси тўғрисидаги Низом // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. – 1996. 5–6-сонлар. 70-модда.

Internet saytlari

1. www.uznature.uz – O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi sayti.

2. www.eco.uz – O‘zbekiston ekologik harakati sayti.

3. www.un.org/esa/sustdev/ – Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.

4. www.unesco.org – BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti sayti.

5. www.unep.org – BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi sayti.

6. www.sgp.org – GEF kichik loyihalar dasturi sayti.

7. www.worldresources.org – Jahon tabiiy resurslar sayti.

8. www.unfra.org – BMTning aholishunoslik dasturi sayti.

9. www.who.org – Butunjahon sogʻliqni saqlash tashkilotining sayti.

10. www.biodiv.org – Biologik xilma-xillik boʻyicha sayt.

11. www.carec.kz – Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markaz sayti.

12. www.lex.uz – Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi.

O'quv-uslubiy nashr

Nashriyot muharriri: Fayzi Shohismoil
Musahhiha: Kamola Boltaboyeva
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev
Kompyuterda sahifalovchi: Ubaydulloh Boltaboyev

«MUMTOZ SO'Z»
mas'uliyati cheklangan jamiyati
nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008
Terishga berildi: 28.06.2012
Bosishga ruxsat etildi 19.07.2012
Qog'oz bichimi 60x84 1/32. Ofset qog'ozi
Times New Roman garniturası. Hisob-nashriyot tobog'i 3,0
Shartli bosma tobog'i 3,5. Adadi 500
Bahosi kelishilgan narxda

Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.
Tel: 241-60-33
E-mail: mumtoz_soz@mail.ru